



KOMPOZITOR YAXIEL SABZANOV IJODIDA KONSENTRIK SHAKL

Ulug'bek Mirshayev

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi,
u.m.mirshaev@buxdu.uz

Dilora Mirshayeva

Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabii Musiqa nazariyasi kafedrasida bosh o'qituvchisi,
diloramirshaeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompozitor Yaxiel Sabzanovning ijodiy faoliyati, musiqaning konsentrik shakli hamda uning tuzilishi va xususiyatlari to'g'risida batafsil fikr boradi. Klassik kompozitorning ushbu shakldan mohirona foydalanganligi tahsinga loyiq. Kompozitorning "Pomir lirik qo'shig'i" asarida konsentrik shakl yaqqol o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: muqaddima, davriya, jumla, registr, asosiy mavzu, o'rta mavzu, repriza, funksiya, bog'lama, coda.

Vokal janrining bir turi – q'o'shiqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin. Qo'shiqning she'r va kuyi xalq tomonidan ijod qilinib va xalq orasida keng tarqalgan janrlardan sanaladi. Qo'shiq she'rlarida bir necha band bo'lib, ba'zan naqarotli bo'ladi. Qadimda xalq orasida keng tarqalgan bu janrning she'r va musiqasi bir yo'la yaratilgan. Hozir O'zbekistonda bastakor va kompozitorlar yaratayotgan qo'shiqlar mavzusi boy va turli – tuman. Ular turli marosim, mehnat, ishqiy – lirik, qahramonlik mavzularini o'z ichiga oladi.

Bularni barchasini mukammal tushungan zamonaviy tojik kompozitorlaridan biri **Yaxiel Sabzanovdir**.



YAXIEL (Iyekutiel) SABZANOV

Tojikiston SSR xalq artisti, Tojikiston SSRda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, bastakor, g'ijjakchi, ustoz murabbiy Yaxiel Rafailovich Sabzanov 1929 yil 20 fevral kuni Dushanbe shahrida tug'ilgan. 1943–1949 yillarda Tojikiston filarmoniyasining xalq cholg'ulari orkestrida g'ijjakchi sozanda sifatida qatnashgan. 1949-1955 yillarda Toshkentda R.M.Glier nomidagi bolalar musiqa maktabida g'ijjak sinfidan dars berib, shu vaqtning o'zida bastakorlik sirlarini o'rgana boshlagan.

Avval Yu.N.Tyulindan, keyinchalik Toshkent konservatoriyasi ning professori G.Musheldan kompozistiya sirlarini mukammal o'rganib 1955 yilda konservatoriyani tugatdi. Tojikistonga qaytib kelgach, 1955-1960 yillari Dushanbe san'at bilim yurtida dars berib, A.Lohutiy nomidagi drama teatri orkestrining badiiy rahbari bo'lib ishladi. 1956-1966 yillarda Tojikiston SSR bastakorlar uyushmasining mas'ul kotibi lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirdi. 1960–



1962 yillarda esa Tojikiston televideniya muharriri lavozimida ishladi. 1963-1965 yillarda Dushanbe shahrining Respublika ixtisoslashtirilgan san'at bilim yurtida, 1966-1968 yillarda Tojikiston SSR madaniyat vazirligi tasarrufidagi musiqiy tahririyatida bosh muharrir lavozimida, 1968-1969 yillarda Tojikiston filarmoniyasining badiiy rahbari lavozimida, 1970-1973 yillarda esa Tojikiston televidenie va radioeshittiruvlarida musiqiy-badiiy jamoalarining badiiy rahbari lavozimida davom ettirdi.

1973-1977 yillarda M.Tursun-zoda nomidagi San'at institutining musiqashunoslik kafedrasini mudiri va 1980 yildan kompozitsiya va cholg'ushunoslik kafedrasini mudiri lavozimlarida ishlab keldi. 1983 yilda dostent, keyinchalik professor ilmiy darajalariga erishdi. 1992 yilda professor Ya.Sabzanov AQSHning Nyu-York shahriga ko'chib kelib, o'z ijodiy faoliyatini davom ettirib keldi.

Yaxiel Sabzanov birinchilardan bo'lib tojik xalq musiqa madaniyati namunalarini klassik musiqa shakllarda aks ettirdi. U tojik musiqasida simfonik poema, konstert va kantata janrlarining asoschilaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyoda ishlab kelgan, xalq og'zaki ijodi va evropa an'analarida ijod qilgan ko'pgina sovet kompozitorlaridan farqli ravishda, Ya.Sabzanov O'rta Osiyoning an'anaviy klassik musiqasi "Shashmaqom" yo'nalishida ijod qilishga asos soldi. Ya.Sabzanovning ijodiy namunalaridan A.Shukhiy asari asosida "Bozgasht" operasi (1967y.), "Nurek mash'ali" oratoriyasi (1970y.), F.Isxokiy asari asosida "Turnaxo" nomli vokal-simfonik poemasi, kantatalar, "Pomir lirik" (1954y.), "Rudakiy xotirasi" (1958y.), "Maqom" (1974y.) nomli simfonik poemalar, "Savgand" vokal-raqs syuitasi, fortepiano va orkestr uchun konstert, xalq chog'ulari orkestri va kamer-cholg'u ansambllari uchun asarlar, skripka va fortepiano uchun asarlar, 4 ta musiqali komediya, 2 ta raqs syuitasi, 100 dan ortiq qo'shiq va romanslar, dramatik spektakllar uchun ko'pgina musiqalar bastalagan. Sabzanov 50 dan ortiq xalq qo'shiqlarini qayta ishlagan.

2013 yilning 11 sentyabr kuni 84 yoshida Yaxiel Rafailovich Sabzanov Nyu-Yorkda olamdan o'tdi. Nyu-Yorkning Kvinsida o'tgan xayrlashuv kechada so'zga chiqqanlar, "Sabzanovning tojik musiqa madaniyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasiga yuqori baho berdilar"- deb yozadi "*The Bukharian Times*" gazetasi.

Kompozitor Yaxiel Sabzanov qalamiga mansub, Shoista Mullojonova, Boris Namatiev, Rafael Tolmasov ijro etgan "Az qadat gardam", "Shahri man", "To'yona", "Ishq", "Ba dilbar" va boshqa qo'shiqlari Tojikiston radio va televideniyesining oltin fondidan munosib o'rin egallagan.

Kompozitor Yaxiel Sabzanovning "*Pomir lirik qo'shiq-poema*" sining musiqiy nazariy tahliliga quyidagicha yondashishimiz mumkin.

Asar "*konsentrik*" shaklda yozilgan bo'lib, beshta qismning o'z ichiga olgan.

Bu asarning shaklini harfiy ko'rinishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

(KONSENTRIK SHAKL)

<i>Muqaddima</i>	I	II	III	IV	V	Coda
	A	B	C	B₁	A₁	

Yaxiel Sabzanov ushbu asarining asosiy tonalligi Iya major (A-dur) da yozilgan bo'lib, sur'at ko'rsatgichi o'rtacha tezlikda bo'lgan "*Andante*" tempida ijro etiladi. Kompozitor Ya. Sabzanov Pomir tog'i tabiatining go'zal manzaralarini tasvirlash uchun va shu bilan birgalikda, sharq kuylariga xos bo'lgan kuy ifoda vositalarini to'liq va to'g'ri o'z o'rnida kelganligini kuzatishimiz mumkin.



Kompozitor qism funksiyalarining barchasidan (6 ta qism funksiyalari mavjud) to'liq foydalangan. Bular quyidagicha nomlanadi: “*muqaddima*” funksiyasi, “*asosiy mavzu*”, “*o'rta mavzu*”, “*repriza*” funksiyasi, “*bog'lama*” funksiyasi va yakunlovchi qism, ya'ni “*Coda*” funksiyasi.

Muqaddima funksiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu qism faqatgina, fortepiano partiyasida berilgan bo'lib, 6 ta takti o'z ichiga oladi. Muqaddima mavzusi (*p*) “pianoda”, yuqori registrda, sakkiztalik cho'zimlarda, kuy bezaklari bilan to'liqinsimon ravishda, kuchli (birinchi) hissadan bir xil tekis sakkiztalik cho'zimlarda boshlanadi va ikkita bir-biriga yaqin bo'lgan ibora (fraz) lardan so'ng, g'ijjak partiyasini boshlash uchun yana ikkita taktdan iborat bo'lgan yangi motivlarni kiritgan, bu ikki taktli ohang, usul, diapason bo'yicha asar birinchi qismining boshlanishiga zamin yaratadi.

“*Konsentrik*” shaklning I-(A) qismi kvadrat davriya shaklida bo'lib, ikki jumlani o'z ichiga oladi. Har bir jumla 16ta takti o'z ichiga oladi. Hajm jihatdan, katta bo'lgan jumalarni yaxlitlash uchun kompozitor 8ta taktdan iborat bo'lgan yakunlovchi funksiyani qo'llagan. Yakunlovchi qismning g'ijjak partiyasi 1-oktava lya tovushida, yarimtalik cho'zimda (*p*) pianoda yakunlangan bo'lsa, konsentrik shaklning II-(B) qismini boshlash uchun kompozitor 5ta taktdan iborat bo'lgan muqaddima funksiyasini qo'llagan.

Muqaddima asosan II-(B) qismning ravon boshlanishiga zamin yaratib kelgan. Muqaddima faqatgina, fortepiano partiyasiga berilgan bo'lib, 5ta takt bo'lishiga qaramasdan, (A-dur) lya majordan re minorda tugagan va oldingi tempda, (*p*) pianoda, kuchli hissadan re minor (d-moll) tonalligida asarning II-(B) qismi boshlanadi. Bu qism ikki jumladan iborat bo'lgan nokvadrat davriya shaklida kelgan. Jumalardagi taktlar soni 13+15 tashkil etadi. Ikkinchi jumlada sekvensiya va kulminatsiya bo'lganligi sababli 15 takti tashkil etgan. Asarning kulminatsiya nuqtasi II-(B) qism, ikkinchi jumlasining 14-taktida to'g'ri kelgan. Kulminatsiya nuqtasi (*fff*)-fotissimoda, yarimtalik cho'zimda, yuqori registrda, “lya”-3-oktava (a^3) tovushi bilan ko'rsatgan. Kulminatsiya nuqtasi ikki taktga chozilganligi uchun ham ohang jihatdan, navbatdagi qismga yaqin bo'lganligi uchun ham hech qanday yakunlovchi yoki muqaddima funksiyasiz, “*Konsentrik*” shaklning markaziy III-(C) qismi kuchi (1-) hissadan boshlangan. III-(C) qism ham boshqa qismlar singari, ikki jumladan iborat bo'lgan nokvadrat davriya shaklda yozilgan. Birinchi jumla 9ta takti, ikkinchi jumla 10 ta takti tashkil etadi. III-(C) qismning fortepiano partiyasida akkordlar “*arpedjiato*” ko'rinishida choraktalik cho'zimlarda kelishi bilan boshlangan. G'ijjak partiyasida esa, kuy mavzusi yuqori registrda, kuy bezagi “*forshlag*” bilan boshlanib, to'liqinsimon ravishda boshlanib borgan. III-(C) qismning ikkinchi jumlasida yakunida kuy (*pp*) pianissimoda, “*ritenuto*” da sekinlashtirilib yakunlanadi.

III-(C) qismning yakunlanishi bilan IV – (B_1) qism boshlanadi. Bu qism oldingi II- (B) qism mavzusini takrorlaydi, faqatgina bir oktava pastda yangraydi. Aniqroq qilib aytganda, II-(B) qism mavzusi ikkinchi hissadan, to'liqsiz taktdan, (a^1) birinchi oktava lya tovushidan boshlangan bo'lsa, IV – (B_1) qismda shu mavzuning o'zi (a_1) kichik oktava lya tovushidan boshlanadi. Shaki va hajm jihatidan ham bir xil ikki jumladan iborat bo'lgan davriya shaklida yozilgan, faqatgina jumalardagi taktlar soni (aniqrog'i ikkinchi jumlada) o'zgarish bo'lgan. Birinchi jumla 13ta takt, ikkinchi jumla 10 ta takti tashkil etadi. Ikkinchi jumladagi kuy ohanglarida o'zgarishlar mavjud, aynan oldinga jumlada takrorlanmagan, ixchamlik va yaxlitlikka rioya qilganligi sababli 15 ta takt emas, 10 ta takti tashkil etadi. Manashu 10 takt “*ritenuto*” bilan yakunlanadi va ikkinchi hissadan (*ff*)-da oxirgi V-(A_1) qism to'liqsiz taktdan cakkiztalik cho'zimlar bilan boshlanadi. Asarda bu qism ham yana bir marta kelayotgani uchun kompozitor aynan o'zini emas, balki,



o'zgartirib takrorlagan. Natijada, shakl o'zgarmsa ham (kvadrat davriya shaklida), jumalardagi taktlar soni o'zgargan (12+12).

Kompozitor bu asarning barcha qismlariga yakun yasar ekan, har xil mavzularning yechimini topishga harakat qildi. 20 ta taktdan iborat bo'lgan **"Coda"** qismini birinchi qism mavzusiga asoslanib yaratdi. **"Coda"** qism iboralardagi taktlar soni har xil (3+4+6+7). Yakuniy 7 ta taktdan iborat bo'lgan ibora yuqori registrda (a^3) uchinchi oktava lya tovushida, (pp)-pianissimoda, "ritenuto"da sekinlashib tugaydi.

Xulosa qilib aytganda, kompozitor bu asarni bastalashda qism funksiyalarning deyarli barchasidan o'rinli foydalangan. Har bir qism ikki jumladan iborat bo'lib jumalardagi taktlar soni har xil bo'lsada, davriya shakliga yozilgan va bu shakllar asarni yaxlitlashga katta xizmat qiladi.

Menimcha, har bir kompozitor o'zining musiqiy tafakkuri, mustaqil mavzulari hamda alohida ijod yo'nalishiga ega bo'lishi kerak. Shundagina u asarlarida o'zining musiqiy mavzularini keng ko'lamda rivojlantira olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Liviyev «O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi». Toshkent 2005 y.
2. "P'yesi sovetkix kompozitorov" Moskva 1987g.
3. G. R.Keldish "Muzikalnaya ensiklopediya" Moskva 1991 g.
4. I. Akbarov «Musiqqa lug'ati» Toshkent 1987 y .
5. T. Vizgo "Muzikalniye instrumenti Sredney Azii" Moskva 1980 g.
6. V. Vinogradov "Istoriya muziki Sredney Azii" Moskva 1995 g.
7. Миршоев У. М. Узбекский музыкальный фольклор и его жанровая структура //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 69-71.
8. Миршаев У. М. МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ШКОЛЬНИКОВ В СЕМЬЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 77-80.
9. Mirshayev U. M., Mirshayeva D. A. Formation, History and Stages of Development of Bukhara Maqom Art //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 429-433.
10. Миршаев У. О'ZBEK XALQ CHOLG'ULARINING SHAKLLANISH TARIXI VA SHARQ MUSIQASHUNOS OLIMLARINING CHOLG'U IJROCHILIGI SAN'ATIGA OID ILMIY MEROSI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
11. Миршаев У. MUSIQA ORQALI MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TARIXINI O'RGANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
12. Миршаев У. STUDENTS THROUGH MUSIC WAYS TO BE INTERESTED IN THE PROFESSION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 1.



14. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo 'lishi va milliy cholg 'u ijrochiligidagi o 'rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 767-771.
15. Ruziev D. Y. The Emergence of New Forms of Musical Ensembles in Uzbekistan //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 343-346.
16. Ибодов У. Р. Инструментальная музыка как орудие психологического влияния на человека. //Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии XXI века. – 2020. – С. 244-248.
17. Камолов Ш. Х. СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ КАК ГАРАНТ ЗАЩИТЫ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНИНА //Наука и инновация. – 2015. – №. 2. – С. 89-92.
18. Мадримов Б. (2021). Воздействие узбекского национального певческого искусства и жанра эстрады на сознание современной молодежи. Наука, техника и образование. № 2-1 (77), С. 55-58.
19. Ахтамов И. И. Ў. Мақом анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 648-653.
20. Akhtamovich K. I. THE CONTENT OF EDUCATION AIMED AT METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE STUDY OF TRADITIONAL MUSICAL HERITAGE //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 13-15.
21. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.
22. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 370-376.
23. Нуруллаев Ф. Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 48-50.
24. Umrzoqovna N. S. FARG 'ONA-TOSHKENT MAQOM YO 'LLARI HAQIDA //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 72-77.
25. Raxmatova M. O., qizi Aslonova N. I. Today's Makom Traditions Spiritual Significance //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 340-342.
26. Rakhmatova M. O., Saidahmadova S. J. Q. SOME ISSUES OF SINGING TEACHING //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 782-786.
27. Каюмов И. Ф. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий ахамияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.
28. Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
29. Hasanov H. R. Ansambl ijrochiligi faoliyating tarixi va taraqqiyot bosqichlari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 650-655.
30. Раджабов Т.И., Рутамова М.Ф. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.